



THE FORMATION OF AGRICULTURAL OASES AND MICRO-OASES IN KHOREZM: IRRIGATION SYSTEMS, STATEHOOD, AND ARCHAEOLOGICAL ANALYSIS

Nozima Matyaqubova

Lecturer

Urgench State University

Urgench, Uzbekistan

E-mail: matyaqubovtohirjon4717@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Khorezm, agricultural oases, micro-oases, irrigation system, statehood, archaeological analysis, tribal governance, N.A. Egamberdieva, Kh. Matyoqubov, M. Qurbanov, agrarian civilization.

Received: 09.05.25

Accepted: 11.05.25

Published: 13.05.25

Abstract: This article explores the formation process of agricultural oases and micro-oases in the Khorezm region, focusing on their irrigation systems, statehood structure, and archaeological analysis. The study analyzes aspects of the development of agrarian civilization and tribal governance in ancient Khorezm based on the scientific works of scholars such as N.A. Egamberdieva, Kh. Matyoqubov, and M. Qurbanov. The research highlights the interconnection between the formation of micro-oases, irrigation facilities, and central cities. In addition, chronological inconsistencies and shortcomings in periodization found in some scholarly perspectives are also addressed.

XORAZMDA DEHQONCHILIK VOHALARI VA MIKROVOHALARNING SHAKLLANISHI SUG'ORISH TIZIMLARI, DAVLATCHILIK VA ARXEOLGIK TAHLIL

Nozima Matyaqubova

o'qituvchi

Urganch davlat universiteti

Urganch, O'zbekiston

E-mail: matyaqubovtohirjon4717@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Xorazm, dehqonchilik vohalari, mikrovoahalar, sug'orish tizimi, davlatchilik, arxeologik tahlil, qabilaviy

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm vohasida dehqonchilik vohalari va mikrovohalarning shakllanish jarayoni, ularning sug'orish tizimlari, davlatchilik

boshqaruv, N.A. Egamberdieva, X. Matyoqubov, M. Qurbanov, agrar sivilizatsiya.

tuzumi va arxeologik tahlil asosida o'rganilgan. Tadqiqotda N.A. Egamberdieva, X. Matyoqubov va M. Qurbanov kabi olimlarning ilmiy ishlari asosida qadimgi Xorazmda agrar sivilizatsiyaning rivojlanishi va qabilaviy boshqaruv tizimi bilan bog'liq jihatlar tahlil qilindi. Mikrovohalarning shakllanishi, sug'orish inshootlari va markaziy shaharlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ko'rsatib berildi. Shuningdek, ayrim ilmiy qarashlardagi xronologik noaniqliklar va davrlashtirishdagi kamchiliklar ham yoritilgan.

ФОРМИРОВАНИЕ ЗЕМЛЕДЕЛЬЧЕСКИХ ОАЗИСОВ И МИКРОЗОН В ХОРЕЗМЕ: ИРРИГАЦИОННЫЕ СИСТЕМЫ, ГОСУДАРСТВЕННОСТЬ И АРХЕОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Нозима Матьякубова

Преподаватель

Ургенчский государственный университет

Ургенч, Узбекистан

E-mail: matyaqubovtohirjon4717@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Хорезм, земледельческие оазисы, микрозоны, ирригационная система, государственность, археологический анализ, племенное управление, Н.А. Эгамбердиева, Х. Матякубов, М. Курбанов, аграрная цивилизация.

Аннотация: В данной статье рассматривается процесс формирования земледельческих оазисов и микрозон в Хорезме на основе ирригационных систем, государственного устройства и археологического анализа. Исследование опирается на научные труды Н.А. Эгамбердиевой, Х. Матякубова и М. Курбанова, в которых освещены вопросы развития аграрной цивилизации и племенного управления в древнем Хорезме. Показана взаимосвязь между формированием микрозон, ирригационными сооружениями и центральными поселениями. Также затронуты проблемы хронологических неточностей и недостатков в периодизации в некоторых научных подходах.

Kirish. Xorazm vohasida qadimdan sun'iy sug'orish tizimlari asosida dehqonchilik vohalari va mikrovohalarning shakllanishi hududning agrar sivilizatsiyasi va davlatchilik taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. XXI asr boshlarida olib borilgan tadqiqotlar ushbu jarayonlarni chuqur ilmiy tahlil qilishga yo'naltirildi. Dehqonchilik vohalari qadimgi Xorazm jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasida asosiy o'rin tutgan bo'lib, ularning shakllanishi va rivojlanishi davlat boshqaruvi, qabilaviy tizim va sug'orish inshootlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan.

Adabiyotlar tahlili. N.A. Egamberdieva o'z tadqiqotlarida qadimgi Baqtriya, So'g'd va Xorazmda dehqonchilik vohalarining o'rganilish tarixini yoritib, ularni davlatchilik shakllanishidagi asosiy omil sifatida taqdim etgan. U "Avesto" ma'lumotlari bilan qiyosiy tahlil orqali qabila va urug'larning boshqaruvdagi o'rmini aniqlagan. X. Matyoqubov esa mil. avv. VI-V asrlarga oid Xorazm mikrovohalarini tasniflab, ularning geografik joylashuvi va markaziy shaharlarini ko'rsatib bergan. M. Qurbanov Xorazmning mil. avv. VI - milodiy IV asrlardagi qishloq jamoalari va madaniy-xo'jalik markazlarini o'rganib, dehqonchilik vohalari va mikrovohalarning shakllanishi hamda ularning arxeologik yodgorliklari xronologiyasini yoritgan. Biroq, uning ayrim davrlashtirishdagi xatolari ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo'lgan.

Metodologik asoslar. Tadqiqotda dehqonchilik vohalari va mikrovohalarning shakllanish jarayonini ilmiy asosda yoritish uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Arxeologik tadqiqotlar orqali qadimgi sug'orish tizimlari, kanallar, ariqlar hamda ularning atrofidagi manzilgoh va yodgorliklar o'rganildi. Tarixiy manbalar tahlili orqali davlatchilik va agrar tizim evolyutsiyasi ilmiy izohlab berildi. Kartografik va geoinformatsion usullar yordamida mikrovohalarning geografik joylashuvi va sug'orish tarmoqlari bilan markaziy shaharlar o'rtasidagi bog'liqlik aniqlashtirildi. Paleoekologik tahlil asosida iqlim o'zgarishlari va tabiiy sharoitlarning vohalar rivojiga ta'siri o'rganildi. Stratigrafik va xronologik usullar esa arxeologik topilmalar yordamida vohalarning davriy bosqichlarini belgilash imkonini berdi. Ushbu metodlarning uyg'unligi Xorazmda sug'orish tizimlari, dehqonchilik vohalari va davlatchilik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tahlil qilishga zamin yaratdi.

Tahlil. XXI asrning boshlarida olib borilgan tadqiqot ishlarida dehqonchilik vohalari alohida tadqiqot doirasiga tortilib, ularni talqin qilishda davlatchilikning bo'g'ini sifatida baho berishgan. N.A.Egamberdieva qadimgi Baqtriya, So'g'd va qadimgi Xorazmda dehqonchilik vohalarining o'rganilish tarixini yoritib, davlatchilikning shakllanishidagi ilk omil dehqonchilik vohalari birlashmasi deb ko'rsatgan[1, B.186.]. Bunday davlatning birlashmasi va boshqaruv uslubi "Avesto" ma'lumotlariga qiyosiy solishtirib, unga mosligini aniqlagan. Davlatning boshqaruvida har bir qabila va urug' oqsoqollari qatnashganligini va ularning joylashgan hududlari aynan dehqonchilik vohalari bo'lishi mumkin. Dehqonchilik vohalarining arxeologik tahlili shunday xulosaga kelishga asos bo'ladi. Dehqonchilik bilan shug'ullangan aholi suv havzalarida yashagan. Bitta ariq bir qishloqni suv bilan ta'minlagan. Ariq esa, shu qishloqda yashagan urug' yoki qabila nomi bilan atalgan. Qishloqning nomi ham shu bilan bog'liq bo'lgan. Urug' yoki qabila soni oshgach yoki yashab turgan hududidan ma'lum bir sabab tufayli chiqib ketsalar, borib joylashgan hududida o'z turmush tarzini davom qildirib, o'sha joyni obodonlashtirganlar, o'zlarining kun kechirishlari uchun moslashtirganlar. Bu jarayon albatta yakka tarzda kechmagan, jamoaviy xarakter kasb etgan. Suv havzalari atrofida qishloqlar, qo'rg'onlar va markaziy qal'a,

ya'ni hududning boshqaruv markazi bunyod etilgan. Aholi yashagan hududlarning chegaralari ham sug'orish tizimi chegarasi bilan bog'liq bo'lgan.

Natijalar. X. H.Matyoqubovning tadqiqot ishida mil.avv. VI -V asrlarga oid Xorazm vohasidagi mirovohalar, ularning joylashgan hududlari va markaziy shaharlari tahlili berilgan[7,B.38-50] . Ular quyidagicha ajratilgan:

Mil. avv. VI asrda vujudga kelgan ilk mikrovoahalar:

1. Ko'zaliqir mikrovohasi. U Dovdondan chiqarilgan Chirmonyob kanalining o'rta qismida, shu atrofdagi sug'orish tizimlarining boshlang'ich nuqtasida joylashgan. Mikrovohaning bosh shahri Ko'zaliqir shahri.
2. Xazorasp mikrovohasi. Xazorasp kanalining o'rta qismida. Bosh shahri Xazorasp Ichanqal'asi.
3. Toshsoqa mikrovohasi. Xazorasp mikrovohasi bilan zamondosh bo'lgan ushbu voha markazi Xumbuztepa.
4. Qo'shqal'a mikrovohasi. Amudaryoning o'rta oqimi, so'l sohilida joylashgan bo'lib, uning bosh shahri Qo'shqal'a 1.
5. Qanxaqal'a mikrovohasi. Qanxaqirning sharqiy va janubi-sharqiy etagida joylashgan. Qanxadaryodan chiqarilgan sug'orish tizimlari havzasidagi mikrovoha markazi Qanxaqal'a 1.
6. Butentov mikrovohasi. Butentov tepaligining butun shimoliy, sharqiy va janubiy etaklariga yoyilgan Daryoliqdan chiqarilgan sug'orish kanallari havzasida joylashgan. Mikrovohaning bosh shahri Butentovqal'a 1.

Mil. avv. V asrda chap sohil Xorazmda vujudga kelgan mikrovoahalar:

1. Qal'aliqir mikrovohasi. Ko'zaliqirdan 20 km sharqda, Chirmonyob kanali o'rta qismi o'ng sohili va Janubiy Dovdonning yuqori oqimi chap sohilidagi hududlarni o'z ichiga olgan. Bosh shahri Qal'aliqir 1.
2. Tuzqir mikrovohasi. Bosh shahri Tuzqirning sharqiy etagida joylashgan Oqchagelin qal'asi.
3. Oybuyir mikrovohasi. Bosh shahri Katta Oybuyirqal'a bo'lib, u Daryoliqdan chiqarilgan kanal orqali suv bilan ta'minlangan vohaning markazi vazifasini bajargan.
4. Xiva mikrovohasi. Qadimgi Heykanik (Polvonyob) kanali atrofidagi sug'orma dehqonchilik yerlarini o'z ichiga olgan. Ma'muriy markazi Xiva Ichanqal'asi.

Mil.avv. V asrda o'ng sohil Xorazmda vujudga kelgan mikrovoahalar:

1. Dingilja mikrovohasi. Qadimgi Kaltaminor kanalidan suv olgan Dingilja sug'orish inshooti havzasida joylashgan. Markazi Dingilja qishloq qo'rg'oni.

2. Bozorqal'a mikrovohasi. Oqchadaryodan chiqarilgan qadimgi Bozorqal'a kanali havzasida. Bosh shahri Bozorqal'a .

X.Matyoqubov Xorazm vohasidagi davlatchilikning shakllanishini tahlil qilganda mil.avv. VI asrdan keyin hududda yuz bergan tub o'zgarishlar haqida va Amudaryoning o'ng va chap sohilida yangi dehqonchilik vohalarining shakllanganligi va ularning hududlari yanada kengayganligini ham ko'rsatib o'tgan. Ularni madaniy-xo'jalik massivlar deb ajratgan. Oqchadaryo havzasi yanada keng o'zlashtirilganligini ko'rsatib, yettita dehqonchilik vohasini aniqlagan: Bozorqal'a, Qirqqiz-Burgutqal'a, Tuproqqal'a-Gavxo'ra, Yakka Parson, Toshxarmon, Katqal'a, Tuproqqal'a. Bu davrda Amudaryoning Sariqamish o'zani hududlarida ham suv mo'l bo'lganligi sababli bu hududdagi Dovdon va Daryoliq kanallari atroflari ham keng o'zlashtirilgan va yangi dehqonchilik vohalari ham tashkil topgan. X.Matyoqubov 15 ta dehqonchilik vohasini ko'rsatgan[8,B. 43 – 46 .].

M.Qurbanovning tadqiqot ishida Xorazmning mil. avv. VI - milodiy IV asrlargi qishloq jamoalari tarixini yoritish jarayonida shu davrda mavjud bo'lgan quyidagi jo'jalik-madaniy markazlari va ularning tarkibida shakllangan mikrovohalarni ko'rsatgan:

I. Amudaryo o'ng sohili madaniy-xo'jalik markazlari va mikrovohalar: Bozorqal'a – Kaltaminor kanalidan shimoli-g'arbiy tomonga chiqarilgan sug'orish inshooti atroflarini qamrab olgan madaniy-xo'jalik markaz bosh shahri.

Ding'ilja–Oqchadaryo havzasi janubi-sharqiy qismi Kaltaminor kanali sohiliga tutashgan mazkur atamadagi madaniy-xo'jalik markazi bosh shahri Ding'ilja.

II. Amudaryo so'l sohili madaniy-xo'jalik markazlar va mikrovohalar: Odoytepa – Amudaryo o'rta qismi (so'l sohili) madaniy-xo'jalik markaz bosh shahri Odoytepa, uning mikrovoha bosh shahri Qo'shqala.

Ko'zaliqir –Dovdon irmog'i o'rta qismi shimoli-sharqiy tomonidagi Ko'zaliqir balandligi atrofini qamrab olgan dehqonchilik vohasi bosh shahri.

Qang'qaqal'a-1–Qang'qaqir janubi-g'arbiy etagi balandligi madaniy-xo'jalik markazi bosh shahri.

Butentov-1–Butentov tepaligi atrofi bosh shahri. Uning mikrovohalari bosh shaharlari Butentov-2, Butentov-3 [4, B. 53-54.]. Tadqiqotchi M.Qurbanov bu maqolasida dehqonchilik vohalaridagi arxeologik yodgorliklarning xronologiyasini to'g'ri ko'rsatgan bo'lsada, dissertatsiya avtoreferatida bu dehqonchilik vohalarini ilk temir davriga kiritgan va "Xorazm vohasida ilk temir davrida 70 gektardan tortib, to 0,5 gektargacha hajmdagi shaharlar qurilganligini ko'rsatib, bular: 70-20 ga (Qal'aliqir, Ko'zaliqir, Bozorqal'a, Xiva), 10-5 ga (Oybug'irqal'a, Hazorasp), 5-0,5 ga (Qo'shqal'a, Ding'ilja, Odoytepa) hajmdagi shaharlar va qishloq manzilgohlari" – deb bayon qilgan[5,B.15-16.]. Bu bilan arxeologik yodgorliklarga tahlil qilishda ko'pol xatoga yo'l qo'ygan.

Tarixiy davrlashtirishda mil.avv. VIII -VII asrlar ilk temir davri hisoblanadi va mil.avv. VI asrdan qadimgi davr tarixi boshlanadi. Xorazm vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar jarayonida ilk temir davriga oid yirik shahar qurilishi aniqlangan emas.

Xulosa. Xorazm vohasida dehqonchilik vohalari va mikrovohalarning shakllanishi hududning sug'orish tizimlari, qabilaviy boshqaruv va davlatchilik jarayonlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Arxeologik tadqiqotlar va tarixiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, qadimgi Xorazm jamiyatida agrar munosabatlar va suv resurslarini boshqarish tizimi siyosiy va iqtisodiy barqarorlikning asosiy omillaridan biri sifatida shakllangan [9,C.157–165.].

Sug'orish tizimlari Xorazm vohasining tabiiy sharoitiga moslashgan holda rivojlangan bo'lib, bu tizimlar asosida markazlashgan dehqonchilik xo'jaliklari va ma'muriy markazlar shakllangan. Har bir asosiy kanal va suv inshooti boshida, o'rtasida va oxirida maxsus qal'alar qurilgan bo'lib, ular suv resurslarini taqsimlash va nazorat qilishda muhim rol o'ynagan [6,C.89–95.].

Vohalarning geografik joylashuvi, sug'orish inshootlari va siyosiy boshqaruv markazlari o'rtasida uzviy aloqalar mavjud bo'lgan. Bu holat, o'z navbatida, agrar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida suv resurslarini boshqarish tizimi markaziy o'rin tutganini tasdiqlaydi [3,C.45-52.]. Qadimgi Xorazm davlatida surg'orma dehqonchilikni tashkil etish va uni boshqarish bilan odatda qohinlar (ma'naviy-siyosiy elita) shug'ullangan, bu esa diniy va ma'muriy tizimlar o'rtasidagi kuchli integratsiyani ko'rsatadi.

Biroq, ayrim tadqiqotchilar tomonidan vohalar rivojlanishining xronologik ketma-ketligiga oid farqli qarashlar mavjud. Bu esa, ilmiy yondashuvda ehtiyotkorlik va manbalarni tanqidiy tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi [2,C.203-210.].

Yakuniy natija sifatida, qadimgi Xorazmda agrar sivilizatsiyaning rivojlanishi, sug'orish tizimlarining shakllanishi va davlat boshqaruv tizimining paydo bo'lishi o'zaro chambarchas bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi jarayonlar ekanligi ilmiy asosda isbotlandi. Bu jarayonlar Xorazmning uzoq muddatli siyosiy va iqtisodiy barqarorligiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Adabiyotlar

1. Egamberdiyeva N.A. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati. – B.186.
2. Бернштам А.Н. Исследования по истории древнего Согда и Хорезма. – Москва: Наука, 1951. – С. 203–210.
3. Виноградов А.В. Аграрная история Хорезмского оазиса. – Ташкент: Фан, 1977. – С. 45-52.
4. Қурбанов М.А. Хоразм воҳасида микровоҳаларнинг вужудга келиши ва ривожланиш тарихи (мил. авв. VI-V асрлар). // Хоразм Маъмун академияси Ахборотномаси. №3. 2018. – Б.53-54.

5. Қурбанов М.А. Хоразм қишлоқ жамоалари тарихи (ијтимой -иқтисодий ва этномаданий муносабатлар, мил. авв. VI- милодий IV асрлар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Урганч. 2023. – Б.15-16.
6. Литвинский Б.А. История ирригационных систем в Центральной Азии. – Москва: Наука, 1969. – С. 89–95.
7. Матёкубов Х.Ҳ. Ўзбек давлатчилигининг илк босқичларида қадимги Хоразм. т.ф.н. илм. даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 2012. – Б. 38 – 50
8. Матёкубов Х.Ҳ. Ўзбек давлатчилигининг илк босқичларида қадимги Хоразм. – Б. 43 – 46.
9. Толстов С.П. Древний Хорезм. – Москва: Издательство АН СССР, 1948. – С. 157–165.